XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 31-yanvar VII-21-9-5-78-K/26 Zarafshon shahar

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining “Zarafshon shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 29-dekabrdagi VII-19-211-5-78-K/25-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Shoxmirzayevning 2026-yil 6-yanvardagi 01-12-408/20-01-38/20-son xatini inobatga olib,“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24- moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Shoxmirzayevning 2026-yil 6-yanvardagi 01-12-408/20-01-38/20-son xati inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari shahar Kengashining “Zarafshon shahrining 2026-yildagi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 29-dekabrdagi VII-19-211-5-78-K/25-son qarorining:

1-ilovasi 1-ilovadagi tahrirda

2-ilovasi 2-ilovadagi tahrirda bayon etilsin.

3. Qarorning qolgan ilovalari o‘zgarishsiz qoldirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A. Shoxmirzayev hamda xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi R.Nurnazarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

ERNAFASOV HUSNIDDIN BOLTAYEVICH

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2026-yil 31-yanvardagi
VII-21-9-5-78-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shaharning shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Miqdori (ming soʻmda)
JAMI		**131 763 111**
1.	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	4 672 000
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	59 766 894
3.	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 026 000
4.	Foyda soligʻi	3 258 210
5.	Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i	17 492 000
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 047 000
7.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	6 608 000
8.	Qurilish materiallari boʻyicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	202 000
9.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 014 657
10.	Aylanmadan olinadigan soliq	7 824 000
11.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	9 092 000
12.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	3 993 000
13.	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	160 000
14.	Davlat boji	4 967 400
15.	Yigʻimlar	1 389 300
16.	Jarimalar	3 250 650

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2026-yil 31-yanvardagi
VII-21-9-5-78-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Zarafshon shaharning shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so`m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**131 763 111,0**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	35 657 443,0
	shundan:	
	“Mening maktabim”	865 200,0
2.	Madaniyat bo‘limi	6 165 494,0
3.	Yoshlar ishlar agentligining hududiy bo‘limi	2 459 397,0
4.	Sport bo‘limi	11 615 968,0
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 132 149,0
6.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 039 893,0
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 575 065,0
8.	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	28 445,0
9.	Hokimiyat	23 282 867,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	9 888 000,0
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	560 000,0
	Zahira jamg‘armasi	1 875 893,0
10.	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 985 668,0
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	65 368,0
	Axborot-kutubxona markazlari	1 920 300,0
11.	Obodonlashtirish boshqarmasi	43 820 722,0
12.	Boshqa tashkilotlar	0,0